TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MANSUROV DILSHOD RAVILOVICH

TO‘LIQ BO‘LMAGAN KUZATILMALI SXEMALARDA STATISTIK MODELLASHTIRISH METODLARI YORDAMIDA BAHOLARNI TAHLIL QILISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

NAVOIY – 2023

UDK: 519.688 (519.24)

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MANSUROV DILSHOD RAVILOVICH

TO‘LIQ BO‘LMAGAN KUZATILMALI SXEMALARDA STATISTIK MODELLASHTIRISH METODLARI YORDAMIDA BAHOLARNI TAHLIL QILISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

NAVOIY – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM825 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (xulosa)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://www.ifar.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdushukurov Abduraxim Axmedovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Eshmatov Farxod Xasanovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Nurmuxamedova Nargiza Saydillayevna fizika-matematika fanlari bo‘yicha PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat transport universiteti**

Dissertatsiya himoyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “____” ____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100000 Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti. __-katta majlislar zali; tel. (+99871) 237-09-61; faks (+998 71) 234-48-67; e-mail: info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100000 Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, __-katta majlislar zali; tel. (+99871) 237-09-61.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “ ___” ___ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” ____ dagi ___ -raqamli reyestr bayonnomasi)

B.J.Ahmedov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi f.-m.f.d., professor

E.X.Karimbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi f.-m.f. bo‘yicha PhD

A.R.Hayotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda statistik masalalarni tadqiq qilishga keltiriladi. Bizga ma’lumki, statistik tadqiqotlarning asosiy vazifasi kuzatuv natijalarini qayta ishlash, qaror qabul qilish va uni qulay shaklda taqdim etishdir. Biroq hayotda har doim ham to‘liq ma’lumotlar uchrayvermaydi. Gohida to‘liq bo‘lmagan kuzatuvlarni tadqiq qilish va ular yordamida bir yoki bir nechta noma’lum taqsimot qonuni haqida xulosa chiqarish kerak bo‘ladi. To‘liq bo‘lmagan kuzatishlarni biz umr davomiyligi, sug‘urta ishi, sifat nazorati, demografiya, tuproqshunoslik, astronomiya va boshqa sohalarga oid tadqiqotlarda ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Matematik statistika muammolari, xususan, senzuralangan kuzatishlar bo‘yicha noparametrik baholash to‘liq kuzatuvli tanlanmalar bilan taqqoslaganda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Empirik taqsimot funksiyaga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan to‘liq bo‘lmagan tanlanmalarga asoslangan bahoni qurish ko‘plab statistiklarning tadqiqot mavzusiga aylangan. Bu kabi mualliflarning to‘liq bo‘lmagan kuzatilmalarga asoslangan baholariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bahoning empirik taqsimot funksiyaga nisbatan anchayin murakkab tarkibga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ushbu baholarni o‘rganishda qaralayotgan modelning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda noan’anaviy usullar va maxsus yondashuvlar zarur bo‘ladi. Ammo shunday murakkab bo‘lishiga qaramasdan amaliy masalalarning juda ko‘pchiligi to‘liq bo‘lmagan tanlanmali modellarga olib kelinadi. Bu esa baholarning xossalarini analitik usulda yechilmasada, sonli usullar yordamida o‘rganishni taqozo qiladi. Shu maqsadda ushbu dissertatsiya ishi ham, ayni paytda, mavjud bo‘lgan va amaliyotda qo‘llanilib kelayotgan baholarni solishtirish, ularning kuchli va zaif tomonlarini ajratib ko‘rsatish hamda ular uchun muvofiqlik mezonlarini ishlab chiqishda sonli usullardan foydalanib mavjud muammolarga qisman yechim berishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-sonli “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Statistikada dastlab “senzurlanganlik” va “kesilganlik” atamalarining tizimli qo‘llanilishi A.Hald va B.Friedmanga tegishli ekanligini ta’kidlab o‘tamiz. Keyinchalik senzurlanishli tanlanmalarga oid ishlarda, asosan, o‘ng tomondan senzurlanishli modellar N.Breslow, M.Burke, G.Campbell, S.Csörgő, D.Dabrowska, B.Efron, A.Földes, L.Rejto, R.Gill, M.Hollander, E.Kaplan, P.Meier, R.Liu, F.J.Rubio K.S.Sagidullayev, R.S.Murodov, F.A.Abdukalikov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Buning sababi o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli tanlanmalarning tabiatda ko‘p uchrashi hamda ularning metodologik jihatdan tushuntirishning sodda ekanligida. Shuningdek, o‘ng tomondan senzurlanishga doir ishlarni chap tomon uchun ham oson umumlashtirish mumkinligidir. Ma’lumki, to‘liq kuzatishlar sharoitida taqsimot funksiyaning noparametrik bahosi empirik taqsimot funksiya hisoblanadi va uning xossalari ko‘plab mualliflar Y.Blagoveshchensky, R.Gill, R.Dudley, A.Dvoretzky, W.Stute, J.Van Rayzin, P.Major, S.Csörgő tomonidan o‘rganilgan. Amaliyotda ko‘p qo‘llanilishi talabidan senzurlangan ma’lumotlar asosida quriladigan noparametrik baholarni topish asosiy statistik masalaga aylandi. Izlanishlarning natijasi sifatida 1958-yilda Kaplan va Meier birinchilardan bo‘lib o‘ng tomonlama tasodifiy senzurlanish modeli uchun o‘zlarining PL-(product-limit, ya’ni ko‘paytma ko‘rinishidagi) bahosini taklif qilishgan hamda keyinchalik u ko‘plab mualliflar tomonidan chuqur o‘rganilgan. PL-bahoning turli xil o‘zgartirilgan versiyalari mavjud. Ko‘pgina olimlarning ishlari ushbu bahoni o‘rganish va undan foydalanishga bag‘ishlangan. Buni dissertatsiya oxiridagi adabiyotlar ro‘yxati ham tasdiqlaydi. Ko‘p sonli olimlar orasida Y.K.Belyayev, Y.N.Blagoveshchensky, R.D.Gill, O.Aalen, M.Csörgő, S.Csörgő, N.Breslow, B.Efron, P.K.Andersen, M.D.Burke, L.Horváth, A.Földes, L.Rejto, D.M.Dabrowska, J.K.Ghorai, V.Susarla, J.Van Rayzin, P.Major, E.G.Phadia, W.Stute, J.Wellner, N.Veraverbeke mualliflarni, O‘zbekistonda esa V.I.Romanovskiy, S.H.Sirojiddinov, A.A.G‘ofurov, K.S.Sagidullayev, R.S.Murodov, F.A.Abdukalikov kabi olimlarni alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerak. Abdushukurov tomonidan o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli modellar uchun baholar taklif etilgan. Xususan, muallif proporsional intensivlik modeli uchun darajali ko‘rinishdagi baho taklif etgan. Keyinchalik (S.Csörgőning ishlarida) ushbu baho ACL (ACL-Abdushukurov – Cheng – Lin) bahosi deb nomlanadi. Bu va bundan keyingi o‘rinlarda ushbu bahoni darajali baho deb yuritamiz.

Yuqorida nomi tilga olingan Kaplan-Meier bahosi amaliy jihatdan juda keng qo‘llaniladigan baho bo‘lib, uning kovariatali ko‘rinishi Beran tomonidan umumlashtirilgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlardan ko‘rinib turganidek, ushbu baholar chuqur o‘rganilgan va amaliyotga tatbiq qilingan. Biroq darajali baho Kaplan-Meir bahosiga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Uning umumlashmasi bo‘lgan kovariatali ko‘rinishi deyarli o‘rganilmagan. Ushbu dissertatsiya ishi yuqorida aytib o‘tilgan baholarni statistik modellashtirish hamda sonli usullar yordamida o‘rganishni va ma’lum darajada solishtirishni maqsad qiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ko‘pgina olimlarning senzurlangan tanlanmalar bo‘yicha tadqiqotlari bilan bog‘liq ishlari tufayli hozirda matematik statistikaning to‘liq bo‘lmagan kuzatishlar statistikasi deb ataladigan alohida sohasi yuzaga keldi.

Dissertatsiya ishining maqsadi. Darajali bahoning ikki tomonlama senzurlanishdagi o‘xshashini tadqiq qilish va mavjud baholar bilan taqqoslash hamda u uchun muvofiqlik mezonlarini ishlab chiqish va o‘rganish. Darajali bahoning kovariatali ko‘rinishdagi umumlashmasi uchun optimal “oyna kengligi” parametri mavjud ekanligi, uning qanday parametrlarga bog‘liq ekanligini o‘rganish va uni topish uchun adaptiv algoritmni ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya ishining vazifasi. Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalarni hal etish rejalashtirilgan:

o‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli informativ modelda mavjud baholarni xususiyatlarini o‘rganish. Ushbu baholarning afzalliklari va kamchiliklarini solishtirish (darajali bahoni Kaplan-Meier bahosi bilan solishtirish);

informativ model baholarini senzurlanishning noma’lum parametrlariga bog‘liqligini o‘rganish hamda eksponensial taqsimotni parametrik baholash;

darajali baho uchun muvofiqlik mezonlarini qurish va ularning xossalarini tadqiq qilish;

taqsimot funksiyasini kovariatali bahosi xususiyatlarini o‘rganish hamda “oyna kengligi” parametrini tanlashning taqsimot funksiyaning kovariatali bahosi xususiyatlariga ta’sirini tadqiq etish;

taqsimot funksiyaning kovariatali bahosi uchun mos keluvchi optimal “oyna kengligi” parametrini topish algoritmini ishlab chiqish hamda taklif qilingan algoritmdan foydalangan holda dasturiy mahsulot yaratish.

Tadqiqotning obyekti. O‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli informativ modelning darajali bahosi va uning tabiiy umumlashmalari. Kaplan-Meier bahosi va uning umumlashmalari.

Tadqiqotning predmeti. O‘ng tomonlama tasodifiy senzurlanishli modelda darajali baho va Kaplan-Meier baholarini solishtirish ular uchun muvofiqlik mezonlari xossalarini o‘rganish. Baholarning kovariatali ko‘rinishlari va ularning xossalarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya va tadqiqot usullari. Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun matematik statistika, ehtimollar nazariyasi, matematik va statistik modellashtirish (dasturlash) usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba ikki tomonlama tasodifiy senzurlanishli informativ modelda bosh to‘plam eksponensial taqsimoti parametrik baholangan;

ilk marotaba Kolmogorov statistikasida empirik taqsimot funksiya o‘rniga darajali baho qo‘yilganda statistikaning limit taqsimoti taqsimot funksiyaga va uning parametrlariga bog‘liq emasligi, bog‘liq bo‘lsa ham amaliy jihatidan ahamiyatli emasligi sonli usullar yordamida ko‘rsatib berilgan;

darajali bahoga asoslangan muvofiqlik mezoni taklif qilingan;

taqsimot funksiyasining kovariatali bahosining statistik xususiyatlarining tanlangan yadro funksiyalari turiga, tanlanma hajmiga, eksperiment rejasiga, nazorat nuqtalari soniga, regressiyaga bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan va o‘rganilgan;

“oyna kengligi” parametrining optimal qiymatini tanlash uchun adaptiv algoritm taklif etilgan va joriy qilingan. Bu esa eksperimental kuzatishlar natijalarini sifatli yarimparametrik bahosini tuzish imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

darajali baho uchun muvofiqlik mezonlarini tekshiruvchi to‘liq funksionalga ega bo‘lgan dasturiy mahsulot ishlab chiqildi;

optimal “oyna kengligi” parametrini tanlashning adaptiv algoritmi ishlab chiqildi;

taklif qilingan algoritmlarni amalga oshiradigan dasturiy ta’minot yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar bilan ta’minlanadi:

muvofiqlik mezonlarini ishlab chiqishda va ularning statistik xossalari hamda taqsimotlarini o‘rganish uchun matematik apparat va statistik modellashtirish usullarini to‘g‘ri qo‘llanilishi;

statistik modellashtirish natijalarining oldindan ma’lum nazariy natijalar bilan mos kelishi;

matematik fikrlashning qat’iyligi;

olingan natijalarning dalillari matematik (nazariy) jihatdan to‘g‘riligi;

olingan natijalarning boshqa mualliflar tomonidan olingan qismiy natijalari bilan mazmunan mos kelishi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda olingan ilmiy-amaliy natijalar keyingi to‘liq bo‘lmagan tanlanmalarga bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlarda foydalaniladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot yordamida amaliy masalalarni yechishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish. Dissertatsiya ishi natijasi sifatida olingan informativ va informativ bo‘lmagan modellarda baholarni taqqoslash natijalari hamda proporsional intensivlik bahosi uchun ishlab chiqilgan muvofiqlik mezonidan F4-40 raqamli “O‘lchovlik funksiyalar sinfida indekslangan integral empirik protsesslarning asimptotik xossalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 6-fevraldagi 04/11-566-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi Koziol-Grinning proporsional intensivliklar xususiy modeli bahosini Kaplan-Meier bahosi bilan taqqoslash imkonini bergan;

informativ va informativ bo‘lmagan modellar uchun sun’iy tanlanmalar hosil qilib ular yordamida muvofiqlik mezonlarini tekshiruvchi dasturiy mahsulotdan hamda to‘liq bo‘lmagan kuzatilmali modellar baholari qo‘llanilgandagi empirik jarayonning kovariatsion ko‘rinishidan Yo-F4-07 raqamli “Kopula funksiyalari yordamida statistik baholash va gipotezalarni tekshirish” mavzusidagi fundamental yoshlar loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 13-maydagi 04/11-2875-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi taqsimot funksiyalar oilasi haqidagi mezonlarni tekshirishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 ta xorijiy va 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan hamda EHM uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Ushbu dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 bet bo‘lib, u 47 ta rasm va 21 ta jadvalni o‘z ichiga oladi. Adabiyotlar ro‘yxati 110 ta nomdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Senzurlanishli tanlanmalar**” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusini to‘la yoritish uchun zarur bo‘lgan asosiy ta’riflar va muhim tushunchalar keltirilgan. Shuningdek, dissertatsiya ishida ko‘p marotaba murojaat qilinadigan taqsimot funksiyalari va ularning xossalari, umr davomiyligi ko‘rinishidagi tanlanmalar va ularni sun’iy hosil qilish algoritmlari bayon qilingan.

Bosh to‘plam taqsimoti $F(t)$ ning o‘rniga uning turli baholarini ishlatishimiz mumkin. U holda bahoning bosh to‘plam taqsimotiga qay darajada yaqinligini yoki bir nechta baholardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini tekshirishga to‘g‘ri keladi. Shu maqsadda bahoning “sifati” o‘lchovini:

$$d\left(F_1, F_2\right) = \sup_{-\infty<t<\infty} \left|F_1(t) - F_2(t)\right| \quad (1)$$

kabi olamiz.

Statistik tajribalarda kerakli aniqlikka erishish uchun tajribalarni bir necha bor takrorlash zarur. Shunga ko‘ra, takrorlanishlar soni

$$N \le \left[\frac{t_\gamma^2}{\varepsilon^2}\right] + 1 \quad (2)$$

ko‘rinishda bo‘lishi kerak ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu ishda $\varepsilon = 0,01$ va $t_\gamma = 0,99$ deb olingan. Bularni (2)ga qo‘yib, takrorlanishlarning minimal soni $N = 16600$ ekanligini hisoblaymiz. Dissertatsiyadagi barcha natijalar eng kamida 20000 ta tajribaning o‘rtachasi sifatida olingan.

Tadqiqotchi kuzatilayotgan obyektni tajriba boshidan uning yakuniga qadar kuzatishi mumkin. Bunday ko‘rinishdagi kuzatishlar to‘liq kuzatish (klassik statistika) deyiladi va tajriba yakunini anglatuvchi **“ishdan chiqish” (Отказ)** deb ataluvchi qandaydir hodisa bilan yakunlanadi. Ishdan chiqish subyektiv tushuncha bo‘lib, tajriba davomida foydalanuvchi tomonidan kiritiladi va ta’riflanadi. Ishdan chiqishga misol qilib texnik qurilmaning buzilishi, iqtisodiy masalalarda bankrotlik holati, meditsinada bemorning o‘lim holati va shu kabi bir qancha holatlarni keltirishimiz mumkin.

Ammo amaliyotda har doim ham obyektni tajriba boshidan oxirigacha kuzatishimizning imkoni bo‘lmaydi. Ya’ni ayrim obyektlar tajriba yakuniga yetmasdan kuzatishdan chiqib ketadi (“ishdan chiqish”ga uchramasdan). Bu obyektlar haqida faqatgina kuzatishdan chiqib ketgan vaqt momentigacha bo‘lgan ma’lumotlar qoladi. Bunday holatga misol qilib hali davolanishni yakunlamagan bemorning qandaydir sabablarga ko‘ra (doimiy yashash manzili o‘zgarganligi, boshqa klinikaga o‘tganligi va hakozo) klinikani tark etishini keltirishimiz mumkin. Bu holatda bemorning klinikaga kelgan vaqtidan boshlab, klinikani tark etgunigacha bo‘lgan ma’lumotlar bor. Ammo ketganidan keyingi ma’lumotlar mavjud emas. Klinikada faqatgina bemorning chiqib ketgan vaqt momentigina mavjud xolos. Bunday kuzatilmalar **senzurlangan kuzatilmalar** deyiladi. Sodda qilib aytadigan bo‘lsak, obyektning kuzatuvchining ko‘rish maydonidan g‘oyib bo‘lishi (klinikani tark etishi) yoki sinov boshlanganidan keyin bir muncha vaqt o‘tgach kuzatuv ostiga tushishi (bemorda kasallikning dastlabki simptomlari yuzaga chiqqan vaqt momenti noma’lum) senzurlangan kuzatilmalarga misol bo‘ladi. Birinchi hol ma’lumotlarning **o‘ngdan senzurlanishi**, ikkinchi hol esa **chapdan senzurlanishidir**. O‘ng tomondan senzurlanish umr davomiyligi bilan bog‘liq masalalarda ko‘p qo‘llanilganligi hamda uning chap tomon uchun ham osongina umumlashtirish mumkin bo‘lganligi uchun ushbu ishda, asosan, o‘ng tomondan senzurlanishli modellar qaralgan.

O‘ng tomondan senzurlanishli tanlanmalar (umr davomiyligi ko‘rinishidagi kuzatilmalar) deb, quyidagicha aniqlanuvchi C^n to‘plamga aytiladi:

$$C^n = \left\{ \left(Z_i, \delta_i \right), i = \overline{1,n} \right\} \tag{3}$$

bu yerda $Z_i = \min\left(T_i, Y_i\right)$, $T_i -$“ishdan chiqish” yuz bergan vaqt momenti, $Y_i -$ senzurlanish yuz bergan vaqt momenti (*i*-obyekt uchun kuzatishning tugatilish vaqti) va $\delta_i = I\left(T_i \le Y_i\right) -$ hodisa indikatori.

Agar tajriba davomida barcha obyektlarning “ishdan chiqish” vaqt momentlari kuzatilgan bo‘lsa ($Z_i = T_i,\ \delta_i = 1$), u holda bunday kuzatilma **to‘liq kuzatilma** deyiladi (klassik statistika). Agarda qandaydir $Y_i \le T_i$ vaqt momentida kuzatishning tugatilganligi tufayli T_i noma’lum bo‘lsa ($Z_i = Y_i,\ \delta_i = 0$) u holda C^n kuzatilma **o‘ngdan senzurlangan** deyiladi.

O‘ng tomondan senzurlanishni quyidagi uchta asosiy turga bo‘lish mumkin:

I tur senzurlanish. Bu holatda barcha obyektlar oldindan aniqlab olingan qandaydir Y vaqt momentigacha kuzatiladi. Bu vaqt momentigacha “ishdan chiqish”ga uchramagan barcha obyektlarni o‘ng tomondan senzurlangan deb qabul qilinadi ($Z_i = Y,\quad \delta_i = 0$).

II tur senzurlanish. Bu holatda kuzatish ishlari dastlabki $k\ (k<n)$ ta "ishdan chiqish" yuz berguncha amalga oshiriladi. Boshqa barcha obyektlar senzurlangan deb topilib, ularning senzurlanish vaqt momenti $Z_i=T_{(k)},\quad \delta_i=0$ deb qabul qilinadi. Bu yerda $T_{(k)}-$ oxirgi kuzatilgan $k-$obyektining senzurlanishga uchragan vaqt momenti.

III tur senzurlanish. Har bir kuzatilma $Z_i=\min(T_i,\ Y_i)$ kabi tuzib olinadi. Bu yerda T_i- "ishdan chiqish" vaqt momenti hamda Y_i- senzurlanish vaqt momenti bo'lib, ularning taqsimot funksiyalari mos ravishda $F(t)$ va $G(t)$. T_i va Y_i bog'liqsiz tasodifiy miqdorlardir. Bu turdagi senzurlanish o'z navbatida **informativ** va **informativ bo'lmagan** turlarga bo'linadi. Agarda $F(t)$ va $G(t)$ taqsimot funksiyalar bir-biri bilan funksional bog'langan bo'lsa informativ, aks holda informativ bo'lmagan senzurlanish modeli deyiladi.

Biz ushbu dissertatsiya ishida aynan III turdagi senzurlanishdan foydalanamiz. Buning sababi ayni ushbu ko'rinishdagi senzurlanish meditsina, biostatistika, injenerlik tadqiqotlarida va boshqa amaliy masalalarda ko'p uchraydi.

Ushbu to'liq $T=\{T_1,T_2,\ \dots\ ,T_n\}$ tanlanmaga ko'ra $F(t)$ funksiyaning ko'rinishi haqida hech narsa deb bo'lmaydi. Ammo noma'lum $F(t)$ taqsimot funksiyani $F_n^{э}(t)$ empirik taqsimot funksiya yordamida quyidagicha baholash mumkin:

$$F_n^{э}(t)=\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}I(T_i\le t) \tag{4}$$

bu yerda $I(A)-A$ hodisaning indikatori: $I(A)=\begin{cases}1, & A\ \text{ro'y bersa},\\ 0, & \overline{A}\ \text{ro'y bersa}.\end{cases}$

Dissertatsiya ishining asosiy obyekti senzurlanishli tanlanmalar yordamida taqsimot funksiyani baholovchi empirik taqsimot funksiya (4)ga o'xshash baholarini tadqiq qilishdir. Bular haqida dissertatsiyaning **"Senzurlangan tanlanmalar yordamida taqsimot funksiyani baholash"** nomli ikkinchi bobida so'z boradi:

Kaplan-Meier bahosi. 1958-yili Kaplan va Meier tomonidan, F taqsimot funksiya uchun taklif etilgan "product-limit" (PL) bahosi

$$F_n^{PL}(t)=\begin{cases}1-\prod\limits_{\{j:Z_{(j)}\le t\}}\left(1-\dfrac{\delta_{(j)}}{n-j+1}\right), & t\le Z_{(n)},\\ 1, & t>Z_{(n)},\quad \delta_{(n)}=1,\\ \text{aniqlanmagan}, & t>Z_{(n)},\quad \delta_{(n)}=0,\end{cases} \tag{5}$$

bu yerda $Z_{(1)}\le\dots\le Z_{(n)}-$tartibli statistika, $\delta_i=I(X_i\le Y_i)$.

Darajali baho. Faraz qilaylik, $\{(X_k,L_k,Y_k),k\ge1\}$ ketma-ketlik (X,L,Y) uchlikning bog'liqsiz amaldagi qiymati va

$$S^{(n)}=\{(Z_i,\Delta_i),i=1,...,n\}$$

– kuzatilgan tanlanma bo‘lsin. Bu yerda $Z_i=\max\{L_i,\min\{X_i,Y_i\}\}$, $\Delta_i=\left(\delta_i^{(0)},\delta_i^{(1)},\delta_i^{(2)}\right)$, $\delta_i^{(0)}=I\left(\min(X_i,Y_i)<L_i\right)$, $\delta_i^{(1)}=I(L_i\le X_i<Y_i)$, $\delta_i^{(2)}=I(L_i\le Y_i<X_i)$ va $I(A)-$ A hodisaning indikatori. Bunday ko‘rinishdagi modelni tavsiflash maqsadida Z_i va $V_i=\min(X_i,Y_i)$ tasodifiy miqdorlarni kiritib ularning taqsimot funksiyalarini H hamda N orqali belgilab olamiz. H va N mos ravishda maksimum hamda minimumning taqsimot funksiyalari bo‘lganligidan oson tushunish mumkinki,

$$\begin{gathered}H(x)=K(x)N(t),\\ N(t)=1-(1-F(t))(1-G(t)),t\in\mathbb{R}^1.\end{gathered}\tag{6}$$

Endi (6) tenglikka qo‘shimcha tarzda shunday musbat noma’lum θ va β parametrlar topilib, barcha $t\in\mathbb{R}^1$ uchun quyidagi tenglik bajarilishini talab qilamiz:

$$\begin{cases}1-G(t)=(1-F(t))^{\theta},\\ K(t)=(N(t))^{\beta},\end{cases}\tag{7}$$

bu yerda β parametr chap tomondan, θ esa o‘ng tomondan senzurlanish darajasini aniqlaydi. Ushbu parametrlarning qiymatlarini nolga intilishi mos tomondan senzurlanishning kuchsizlanganini anglatadi. Bunday ko‘rinishdagi ikki tomonlama tasodifiy senzurlanishli maxsus model A.A.Abdushukurov tomonidan kiritilgan. (6) va (7) formulalardan oson tushunish mumkinki, o‘rniga qo‘yish usuli yordamida F uchun quyidagi ifodani topamiz:

$$1-F(t)=\left[1-(H(t))^{\lambda}\right]^{\gamma},t\in\mathbb{R}^1,\tag{8}$$

bu yerda $\lambda=\dfrac{1}{1+\beta}$ va $\gamma=\dfrac{1}{1+\theta}$ bo‘lib, λ hamda γ ning 1 ga intilishi mos tomondan senzurlanishning kuchsizlanishini anglatadi. F taqsimot funksiya uchun topilgan (8) formuladagi $(H(x),\lambda,\gamma)$ ifodalarni $S^{(n)}$ tanlanma yordamida baholarini topib, F taqsimot funksiya uchun yarimparametrik bahoni hosil qilamiz. Buning uchun modelning eng asosiy xarakteristikasidan foydalanamiz:

Teorema 1. (7) *tenglik bajarilishi uchun* Z_i *va* Δ_i *tasodifiy miqdorlarning bog‘liqsiz bo‘lishi zarur hamda yetarli.*

Faraz qilaylik, (7) tenglik va teorema 1 ning natijalaridan kelib chiqqan holda λ hamda θ parametrlarni quyidagicha baholab olishimiz mumkin:

$$\lambda_n=1-p_n^{(0)},\quad \gamma_n=p_n^{(1)}\left(1-p_n^{(0)}\right)^{-1}\tag{9}$$

bu yerda $p_n^{(m)}=\dfrac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\delta_i^{(m)},\ m=0,1,2$.

(8) ifodaga (9) ni qo‘yib $F(t)$ uchun quyidagi bahoga ega bo‘lamiz:

$$F_n^{ACL}(t) = 1 - \left[1 - \left(H_n(t)\right)^{\lambda_n}\right]^{\gamma_n}, t \in \mathbb{R}^1. \tag{10}$$

Agarda (7) tenglikda $\beta = 0$, ya'ni $\lambda = 1$ bo'lsa, u holda chap tomondan senzurlanish yo'q ekanligini anglatadi. Bu holatda baho quyidagi ko'rinishni oladi:

$$F_n(t) = 1 - \left[1 - H_n(t)\right]^{\gamma_n}, t \in \mathbb{R}^1. \tag{11}$$

Python programmalash tili yordamida o'ng tomondan senzurlanishli model bo'yicha tanlanma beruvchi modul yaratib, har ikkala bahoning chizmasini chizib olamiz (1-rasm).



a) Kaplan-Meier bahosi b) Darajali baho

1-rasm. $F(t)$ – Veybull taqsimoti bahosi, $n = 500$, senzurlanish 30 %.

Rasmdan (1-rasm, a), b)) ko'rinib turganidek, har ikkala baho taqsimot funksiyaga juda yaxshi yaqinlashadi. Ammo Kaplan-Meier bahosining asosiy kamchiliklaridan biri bu eng katta variatada senzurlanish bo'lsa, keyingi nuqtalarda taqsimot funksiyani o'zida aks ettira olmaydi (1-rasm a)). Darajali bahoda bunday kamchilik kuzatilmaydi. U butun son o'qida aniqlangan. Endi baholarni qaysi biri taqsimot funksiyaga yaqinroq ekanligini bilish maqsadida taqsimot funksiya va baho orasidagi (1) masofaning (2)da aytilganiga ko'ra, 20000 ta tajribadagi o'rtacha qiymatlaridan ushbu jadvalni (1-jadval) tuzib olamiz.

1-jadval

Kaplan-Meier bahosining nazariy taqsimot funksiyadan chetlashishi ($F(t)$ – Veybull taqsimoti)

Veybull taqsimoti ($c = 2$)					
O'tacha senzurlanish darajasi	$n = 100$	$n = 200$	$n = 500$	$n = 1000$	$n = 2000$
0 %	0,08531	0,06062	0,03845	0,02729	0,01941
10 %	0,08704	0,06189	0,03940	0,02793	0,01973
20 %	0,09004	0,06393	0,04061	0,02876	0,02043
30 %	0,09591	0,06815	0,04323	0,03056	0,02174
40 %	0,10581	0,07545	0,04863	0,03451	0,02453
50 %	0,12317	0,09151	0,06073	0,04430	0,03249
60 %	0,15315	0,11967	0,08471	0,06535	0,05047
70 %	0,23079	0,18854	0,14359	0,11655	0,09443
80 %	0,36622	0,31974	0,26643	0,23165	0,20170



2-rasm. Kaplan-Meier bahosining nazariy taqsimot funksiyadan chetlashishi ($F(t)$ – Veybull taqsimoti).

2-jadval

Darajali bahoning nazariy taqsimot funksiyadan chetlashishi (Veybull taqsimoti)

Veybull taqsimoti ($c=2$)					
O‘rtacha senzurlanish darajasi	$n=100$	$n=200$	$n=500$	$n=1000$	$n=2000$
0 %	0,08526	0,06053	0,03840	0,02726	0,01940
10 %	0,08569	0,06089	0,03896	0,02778	0,0195
20 %	0,08664	0,06127	0,03952	0,02803	0,01983
30 %	0,08752	0,06374	0,04087	0,02976	0,02095
40 %	0,09111	0,06467	0,04368	0,03271	0,02337
50 %	0,10931	0,07905	0,05118	0,03680	0,02629
60 %	0,15230	0,11517	0,08066	0,06104	0,04614
70 %	0,19078	0,15876	0,12329	0,10141	0,08323
80 %	0,22785	0,20286	0,17335	0,15289	0,13364



3-rasm. Darajali bahoning nazariy taqsimot funksiyadan chetlashishi (Veybull taqsimoti).

Yuqoridagi 2- va 3-rasmlar 1- va 2-jadvallar asosida chizilgan bo‘lib, har bir tanlanma hajmida 9 xil senzurlanish darajasida taqsimot funksiya va baho orasidagi farq tasvirlangan. Unga ko‘ra, bahoning taqsimot funksiya bilan orasidagi farqi senzurlanish darajasi oshishi bilan ko‘rsatkichli ko‘rinishda oshishini ko‘rishimiz mumkin. Jadvallardagi har bir ustun va har bir satrlarni o‘zaro taqqoslab, informativ modelda darajali baho Kaplan-Meier bahosiga nisbatan taqsimot funksiyaga yaqinroq degan xulosani qat’iy aytishimiz mumkin.

Yuqoridagi taqqoslash ishlari informativ modelda olib borildi. Informativ modelda darajali baho Kaplan-Meier bahosiga nisbatan yaxshiroq ekanligi ko‘rsatib berildi. Informativ bo‘lmagan (tasodifiy senzurlanish) modelda ham baholarni taqqoslash maqsadida “umr davomiyligi”ni standart parametrli eksponensial taqsimot va senzurlanish vaqt momenti taqsimot funksiyasini esa kerakli parametrli ($\int_{-\infty}^{+\infty}\left(1-G\left(t,\ \theta\right)\right)f\left(t\right)dt=1-r$ tenglikdan topiladi) Gamma taqsimotdan foydalanib, tasodifiy senzurlanishli tanlanma hosil qilib, ular yordamida quyidagi taqsimot funksiya va baho orasidagi “masofa” jadvalini tuzib olamiz:

3-jadval

Kaplan-Meier bahosining nazariy taqsimot funksiyadan chetlashishi (Eksponensial taqsimot, senzurlanish vaqt momenti Gamma taqsimotga ega)

Eksponensial taqsimot $(\lambda=1)$					
O‘rtacha senzurlanish darajasi	$n=100$	$n=200$	$n=500$	$n=1000$	$n=2000$
0 %	0,08534	0,06105	0,03827	0,02737	0,01933
10 %	0,08718	0,05921	0,03897	0,02788	0,01970
20 %	0,08726	0,06213	0,03923	0,02807	0,01995
30 %	0,09448	0,07071	0,04418	0,03124	0,02241
40 %	0,10656	0,07779	0,05115	0,03683	0,02643
50 %	0,12372	0,09155	0,06136	0,04434	0,03217
60 %	0,14420	0,10884	0,07419	0,05488	0,04029

4-jadval

Darajali bahoning nazariy taqsimot funksiyadan chetlashishi (Eksponensial taqsimot, senzurlanish vaqt momenti Gamma taqsimotga ega)

Eksponensial taqsimot $(\lambda=1)$					
O‘rtacha senzurlanish darajasi	$n=100$	$n=200$	$n=500$	$n=1000$	$n=2000$
0 %	0,08579	0,06115	0,03845	0,02726	0,01946
10 %	0,08621	0,06252	0,03812	0,02977	0,01953
20 %	0,08723	0,06759	0,04052	0,03036	0,01976
30 %	0,09285	0,07075	0,04287	0,03127	0,02188
40 %	0,09649	0,07148	0,04833	0,03587	0,02782
50 %	0,11017	0,07976	0,05133	0,03658	0,02938
60 %	0,13820	0,10474	0,07406	0,05446	0,04113

Yuqoridagi 3- va 4-jadvallarni sinchkovlik bilan ko‘zdan kechirib, noinformativ (tasodifiy senzurlanish) modelda darajali baho tanlanma hajmi kichik bo‘lganida va senzurlanish darajasi yuqori bo‘lganida Kaplan-Meier bahosiga nisbatan taqsimot funksiyaga yaqinroq ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Endi (7) modelda $X_i \sim F(x,\alpha)=1-e^{-\frac{x}{\alpha}},\ x\geq 0, \alpha>0$, $Y_i \sim G(x,\alpha)=1-\left(1-F(x,\alpha)\right)^{\theta}, \theta>0$ va $L_i \sim K(x,\alpha)=\left(N(x,\alpha)\right)^{\beta}, \beta>0$ bo‘lgan holni qaraymiz. U holda (8)ga ko‘ra, biz $1-e^{-\frac{x}{\alpha}}=1-\left[1-\left(H(x)\right)^{\lambda}\right]^{\gamma}$ ga ega bo‘lamiz. Bu tenglikdan $H(x)$ni topib, uning uchun haqiqatga maksimal o‘xshashlik metodini qo‘llagan holda α parametr uchun quyidagi yarimparametrik bahoga ega bo‘lamiz:

$$\alpha_n=\frac{1}{\lambda_n\gamma_n n}\cdot\sum_{i=1}^{n} Z_i\left(1-\frac{1-\lambda_n}{\left(H_n(Z_i)\right)^{\lambda_n}}\right). \tag{12}$$

(12) formuladan $F(x,\alpha)$ taqsimot funksiya uchun $F(x,\alpha_n)$ bahoga ega bo‘lamiz. Endi biz sonli usullar yordamida model bo‘yicha tanlanma beruvchi dastur tuzib, (10) baho va (12)ni qo‘llagan holda olingan bahoni o‘zaro taqqoslab ko‘ramiz. Bahoning qay darajada taqsimot funksiyaga yaqinligini baholash maqsadida (1) ifodaning 20000 ta tajribadagi o‘rtacha qiymati bo‘yicha jadval tuzib olamiz. Bu esa bahoning bosh to‘plam taqsimotidan uzoqlashishining “o‘lchovi” sifatida qaraladi.

5-jadval

Informativ modelda eksponensial taqsimotning yarimparametrik bahosining nazariy taqsimot funksiyadan uzoqlashishi

Eksponensial taqsimot ($\lambda = 1$)					
O‘rtacha senzurlanish darajasi	$n = 100$	$n = 200$	$n = 500$	$n = 1000$	$n = 2000$
0 %	0,03041	0,02046	0,01400	0,00977	0,00681
10 %	0,03263	0,02160	0,01405	0,01002	0,00701
20 %	0,03353	0,02317	0,01443	0,01070	0,00717
30 %	0,03694	0,02502	0,01600	0,01083	0,00787
40 %	0,03938	0,02769	0,01740	0,01238	0,00874
50 %	0,04154	0,02815	0,01822	0,01366	0,00960
60 %	0,04657	0,03283	0,02056	0,01470	0,01029
70 %	0,05507	0,03903	0,02358	0,01696	0,01227
80 %	0,06493	0,04738	0,02953	0,02143	0,01494



a) Eksponensial taqsimot ($\beta = 1 \theta = 1$)   b) Eksponensial taqsimot $\beta = 4, \theta = 2$

4-rasm. Ikki tomonlama tasodifiy senzurlanishli informativ modelda eksponensial taqsimotni parametrik bahosini o‘rganish.

Yuqoridagi 2- va 5-jadval, 4- va 5-rasmlardan xulosa qilishimiz mumkinki, $F(x, \alpha_n)$ baho juda yaxshi ekan. Agarda F taqsimot funksiya eksponensial taqsimotga ega bo‘lsa, u holda (12) yordamida olingan yarimparametrik bahoni qo‘llash tavsiya qilinadi. Chunki yuqoridagilardan ko‘rinib turganidek, uning senzurlanishga nisbatan sezgirligi past hisoblanadi.

Ma’lumki, Donsker teoremasiga ko‘ra, $\left\{\sqrt{n}\cdot\left(F_n^{\ni}(x) - F(x)\right), x \in R^1\right\}$ tasodifiy jarayon o‘rtacha qiymati nol va kovariatsiyasi $F\left(\min(x_1, x_2)\right) - F(x_1)F(x_2)$ bo‘lgan $\mathbb{B}\left(F(x)\right)$ Broun ko‘prigiga kuchsiz yaqinlashadi. Bunga qo‘shimcha ravishda quyidagi teoremani keltirish mumkin:

Teorema 2 (A. N. Kolmogorov). *Agar $F(t)$ – uzluksiz taqsimot funksiya bo‘lsa, u holda barcha $t \in \mathbb{R}$ lar uchun*

$$\lim_{n\to\infty} P\left\{\sqrt{n}\sup_{u\in\mathbb{R}}\left|F(u) - F_n^{\ni}(u)\right| < t\right\} = K(t) \tag{13}$$

limit o‘rinli. Bu yerda $K(t) = \sum_{k=-\infty}^{\infty} (-1)^k e^{-2k^2t^2}$ – Kolmogorov taqsimoti bo‘lib, limitning natijasi $F(t)$ taqsimot funksiyaga bog‘liq emas. Bu natijalar $F(t)$ taqsimot funksiya uchun ishonch intervallarini qurishda va $H_0 : F = F_0$, ko‘rinishidagi mezonlarni tekshirishda muhim hisoblanadi. Endi biz $F_n^{\ni}(x)$ empirik taqsimot funksiya o‘rniga (10) bahoni qo‘ysak, (13) ifodaning limit taqsimotida qanday o‘zgarish bo‘lishini qiziqib ko‘ramiz. Ayni shu maqsadda dissertatsiyaning **“O‘ng tomondan tasodifiy senzurlanishli informativ model bahosi va uning kovariatali umumlashmasi”** nomli uchinchi bobida $Q_n(x) = \sqrt{n}\cdot\left(F_n(x) - F(x)\right)$ jarayon qaraladi. Bu jarayonning kovariatsion tarkibi dissertatsiya ishining asosiy natijasi sifatida quyidagi teorema tarzida keltirib o‘tilgan:

Teorema 3. Faraz qilaylik, $q > 0$ bo‘lsin. U holda $\{Q_n(x), x \in D\}$ tasodifiy jarayonlar ketma-ketligi $\{A(x), x \in D\}$ markaziy Gauss jarayoniga kuchsiz yaqinlashadi va uning kovariatsiyasi $\forall x_1, x_2 \in D$ uchun quyidagicha bo‘ladi:

$$\operatorname{cov}\{A(x_1),A(x_2)\}=(1-F(x_1))(1-F(x_2))\times$$
$$\times\{a(x_1)a(x_2)\left[H(\min(x_1,x_2))-H(x_1)H(x_2)\right]+b(x_1)b(x_2)\times$$
$$\times p^{(0)}\left(1-p^{(0)}\right)+c(x_1)c(x_2)p^{(1)}\left(1-p^{(1)}\right)-$$
$$-2b(\min(x_1,x_2))c(\min(x_1,x_2))p^{(0)}p^{(1)}\},$$

bu yerda

$$a(x)=p^{(1)}\left[(H(x))^{p^{(0)}}-H(x)\right]^{-1},$$

$$b(x)=-\left[\frac{p^{(1)}}{\left(1-p^{(0)}\right)}c(x)+\frac{a(x)}{\left(1-p^{(0)}\right)}H(x)\ln H(x)\right],$$

$$c(x)=-\frac{1}{\left(1-p^{(0)}\right)}\ln\left[1-(H(x))^{1-p^{(0)}}\right].$$

Yuqoridagi teoremadan ko‘rinib turibdiki, kovariatsion ko‘rinishi murakkab ko‘rinishga ega. Uning xossalarini analitik o‘rganish juda murakkab masala bo‘lgani uchun uni sonli usullar yordamida o‘rganamiz. Shuni eslatib o‘tamizki, yuqoridagi kovariatsiyada har ikkala tomondan senzurlanishni yo‘q deb hisoblasak ($\beta=\theta\equiv 0$, $\lambda=\gamma\equiv 1$, $p^{(0)}=p^{(2)}\equiv 0$, $p^{(1)}\equiv 1$, $H(x)\equiv F(x)$), u holda uning kovariatsion tarkibi Broun ko‘prigi bilan mos tushadi. Sonli o‘rganish maqsadida $\sqrt{n}\cdot\sup\limits_{t\in[\tau,T]}\left|F_n(t)-F(t)\right|$ tasodifiy miqdorning taqsimotini turli senzurlanish darajalarida Kolmogorov taqsimoti bilan taqqoslab ko‘ramiz.



(a) $\beta=0.2,\ \ \theta=0.3$ (b) $\beta=3,\ \ \theta=1$

5-rasm. $\sqrt{n}\cdot\sup\limits_{t\in[\tau,T]}\left|F_n(t)-F(t)\right|$ tasodifiy miqdor, $n=5000$.

Yuqorida keltirilgan gistogrammalarni (5-rasm) analiz qilib shuni ko‘rishimiz mumkinki, parametrlarning $\beta,\theta\in[0,1]$ qiymatlarida limit taqsimot Kolmogorov taqsimotidan deyarli farq qilmayapti. Ammo boshqa holatlarda, ya’ni senzurlanish darajasi oshishi bilan ular orasidagi farq sezilarli bo‘lmoqda. Demak, senzurlanish darajasi yuqori bo‘lganda Kolmogorov taqsimotidan foydalanib bo‘lmaydi.

Endi muvofiqlik mezonlarini qurish uchun quyidagicha belgilash kiritib olamiz:

$$D_n^{ACL}=\sup_{t\le T}\left|F(t)-F_n^{ACL}(t)\right|=O\left(\sqrt{\frac{\ln\ln n}{n}}\right). \tag{14}$$

Biz yuqoridagi (14) intilish tezligini hisobga olib,

$$\sqrt{\frac{n}{\ln\ln n}}\cdot\sup_{t\le T}\left|F(t)-F_n^{ACL}(t)\right| \tag{15}$$

tasodifiy miqdorni hosil qilamiz. (15) tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi va limit taqsimoti haqida xulosa chiqarish maqsadida (15)ning ko‘rinishida tanlanma beruvchi dastur tuzib, ushbu dastur yordamida turli $F(t)$ va n lar uchun tanlanmalar olamiz. Olingan tanlanmalar asosida xulosa chiqarishga urinamiz. (15)ning limit taqsimoti olingan bosh to‘plam taqsimoti $F(t)$ning parametrlariga bog‘liqmi yoki yo‘q ekanligini tekshirish uchun $F(t)$ sifatida eksponensial va normal taqsimotlarni tanlab, ular yordamida $n=500$ (6a-rasm) hamda $n=5000$ (6b-rasm) hajmli (15) ko‘rinishdagi tasodifiy miqdorni hosil qilib, ularning empirik taqsimot funksiyalarini chizib ko‘ramiz.



a) tanlanma hajmi n=500 b) tanlanma hajmi n=5000

6-rasm. $F(t)-$eksponensial taqsimlangan holda (15) ning limit taqsimoti.



a) tanlanma hajmi n=500 b) tanlanma hajmi n=5000

7-rasm. $F(t)-$normal taqsimlangan holda (15) ning limit taqsimoti.

Yuqoridagi 6- va 7-rasmlarni umumlashtirib (15)ning limit taqsimoti $F(t)$ ning parametrlariga bog‘liq emas deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, yuqoridagi chizmalar yoki umuman olganda alohida boshqa holat aytilmagan bo‘lsa, barcha chizmalar o‘rtacha 50 % senzurlanishli tanlanmalar bilan chizilgan.

Endi taqsimot funksiyalarni turli tanlab ko‘ramiz. Yuqoridagi parametrlarga bog‘liq emasligidan umumiylikka ziyon yetkazmagan holda barcha taqsimot funksiyalarni standart parametrda chizamiz.



a) tanlanma hajmi n=500



b) tanlanma hajmi n=5000

8-rasm. $F(t)-$turli taqsimlangan holda (15) ning limit taqsimoti.

Endi (15) da $F(t)$ ni tekis, eksponensial va normal olganimizda (15)ning taqsimot funksiyasi usma-ust tushmoqda. **Bu chizmalar asosida (15) $F(t)$ ga bog‘liq emas yoki bog‘liq bo‘ladigan bo‘lsa ham amaliy jihatdan sezilarli emas deb xulosa qilishimiz mumkin.** Buni, ayniqsa, tanlanma hajmi n=5000 bo‘lganda (8b-rasm) yaqqol ko‘rish mumkin.

Yuqorida alohida ta’kidlab o‘tganimizdek, barcha chizmalar senzurlanish darajasini o‘zgartirilmagan holda chizilgan edi. Endi limit taqsimotning senzurlanish darajasiga qay darajada bog‘liq ekanligini o‘rganish maqsadida bir turdagi $F(t)$ uchun (eksponensial va normal) turli senzurlanish darajasida limit taqsimotni chizamiz.



a) $F(t)-$eksponensial taqsimot



b) $F(t)-$normal taqsimot

9-rasm. Turli senzurlanish darajali tanlanmalarda (15) ning limit taqsimoti.

